


O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

60730800– Yo'l muhandisligi (temir yo'llar ekspluatatsiyasi)
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat transport universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil «29» 08 dagi 5 - sonli yig'ilishida ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil «9» 09 dagi 302 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 60730800 – <i>Yo'l muhandisligi (temir yo'llar ekspluatatsiyasi)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi.	4
1.1.1. 60730800 – <i>Yo'l muhandisligi (temir yo'llar ekspluatatsiyasi)</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60730800 – <i>Yo'l muhandisligi (temir yo'llar ekspluatatsiyasi)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. 60730800 – <i>Yo'l muhandisligi (temir yo'llar ekspluatatsiyasi)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2. 60730800 – <i>Yo'l muhandisligi (temir yo'llar ekspluatatsiyasi)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	5
1.2.3. 60730800 – <i>Yo'l muhandisligi (temir yo'llar ekspluatatsiyasi)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60730800 – <i>Yo'l muhandisligi (temir yo'llar ekspluatatsiyasi)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60730800 – <i>Yo'l muhandisligi (temir yo'llar ekspluatatsiyasi)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	8
Bibliografik ma'lumotlar.....	9
Kelishuv varag'i.....	10

1. 60730800 – Yo‘l muhandisligi (temir yo‘llar ekspluatatsiyasi) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tasnifi

60730800 – Yo‘l muhandisligi (temir yo‘llar ekspluatatsiyasi) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1 Qo‘llanish sohasi.

1.1.1 60730800 – Yo‘l muhandisligi (temir yo‘llar ekspluatatsiyasi) ta‘lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60730800 – Yo‘l muhandisligi (temir yo‘llar ekspluatatsiyasi) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2 Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta‘lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

– ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

– oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60730800 – Yo‘l muhandisligi (temir yo‘llar ekspluatatsiyasi) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1 60730800 – Yo‘l muhandisligi (temir yo‘llar ekspluatatsiyasi) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60730800 – Yo‘l muhandisligi (temir yo‘llar ekspluatatsiyasi) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi “Arxitektura va qurilish” ta‘lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, o‘z ichiga temir yo‘l va yo‘l xo‘jaligi sohasini rivojlantirish, istiqbolini belgilash, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyati vositalari, ekspluatatsiyadagi temir yo‘llarni quvvatini oshirish uchun ta‘mirlashni kompleks loyihasini ishlab chiqish, temir yo‘l konstruksiyasi, uni hisoblash va loyihalash, yo‘lni texnik holatini baholash va diagnostika qilish, temir yo‘l va yo‘l xo‘jaligiga yo‘naltirilgan usullar va uslublarning majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60730800 – Yo‘l muhandisligi (temir yo‘llar ekspluatatsiyasi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:

– davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

– temir yo‘l va yo‘l xo‘jaligini yuritish, texnologik, loyiha va loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish, temir yo‘l va yo‘l xo‘jaligi texnologik jarayonlari, yo‘l xo‘jaligi mashina va mexanizmlar majmuasini boshqarish, ishlab chiqarish va amaliyotga tatbiq qilish jarayonlari, ilmiy – tadqiqot jarayoni.

60730800 – Yo‘l muhandisligi (temir yo‘llar ekspluatatsiyasi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriatning kasb ta’limi yo‘nalishlari bundan mustasno.

1.2.3 60730800 – Yo‘l muhandisligi (temir yo‘llar ekspluatatsiyasi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot;
- loyihaviy-konstruktorlik;
- foydalanish va servis xizmati ko‘rsatish;
- ishlab chiqarish;
- tashkiliy-boshqaruv.

1.2.4 60730800 – Yo‘l muhandisligi (temir yo‘llar ekspluatatsiyasi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60730800 – Yo‘l muhandisligi (temir yo‘llar ekspluatatsiyasi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

– tanlangan faoliyat yo‘nalishiga mos keluvchi ilmiy-texnik axborotlar, ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalarni bilish;

– ekspluatatsiyadagi temir yo‘llarni ta’mirlash loyihalarini texnik va ekologik ekspertiza qilish natijalarini tadqiq qilishda namunaviy metodikalar va texnik vositalarini qo‘llay olish;

– temir yo‘l va yo‘l xo‘jaligi sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy texnikaviy ma’lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o‘rganish;

– berilgan uslublar bo‘yicha eksperimentlarni qo‘yish va o‘tkazish, loyihalashni avtomatlashtirishning standartlashtirilgan paketlari asosida matematik modellashtirish usullarini egallash;

– internet tarmog‘idan eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘naltirilgan holda qidirib topa olish;

– temir yo‘l va yo‘l xo‘jaligini va boshqarish sohasida bajariladigan ilmiy-tekshirish ishlarini bajarishga qatnashish;

– ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyatini rivojlantirish;

– ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

- yo'l masofasi texnik pasporti va yo'l xo'jaligi texnik holatini tadqiq etish;
- yo'l ishlari kompleksi texnologik jarayonlarini loyihalashtirish metodikasini ishlab chiqish;
- ekspluatatsiyadagi temir yo'llarni ta'mirlash ishlari kompleks loyihasini ishlab chiqish, ularni taqqoslash va optimal variantini tanlash;
- bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;
- temir yo'l va yo'l xo'jaligi texnologik jarayonlari loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- temir yo'llar yuqori va pastki qurilmalari konstruksiyalari parametrlari, ularni ish qobiliyatini tahlil qilish va sinovlarini o'tkazish;
- amaliyotda qurilish jarayonlari texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

Foydalanish va servis xizmati ko'rsatish faoliyatida:

- yo'l xo'jaligini yuritish tizimi texnik asosi hisoblangan yo'l yuqori qurilmasini foydalanish sharoiti o'zgarishiga qarab har xil turdagi konstruksiyalarni qo'llash;
- yo'l xo'jaligini yuritish tizimi texnologik asosi hisoblangan ta'mirlash ishlari andozaviy texnologik jarayonlaridan foydalanish;
- yo'l xo'jaligini yuritish tizimi tashkiliy asosi hisoblangan yo'l xo'jaligini yuritish tizimi texnologik asosi hisoblangan yo'l mashina stansiyalari (YMS) kuchi va vositalaridan ta'mirlash ishlarida foydalanish;
- temir yo'l konstruksiyalari va asbob-uskunalarining texnik holatini tekshirish va qoldiq resursini baholash;
- yuqori tezlikli poyezdlar harakati tashkil etilgan uchastkalarda ta'mirlash ishlarini sifatini ta'minlash maqsadida individual texnologik jarayonlar asosida amalga oshirish;
- yo'l xo'jaligi asosiy muammosi hisoblangan yo'l elementlarining uzoq muddatli hizmatini ta'minlash;
- poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlovchi yo'l inshootlari va ob'ektlariga tegishli bo'lgan muhandislik va tashkiliy vazifalarni qo'yish va yechish;
- temir yo'l izi konstruksiyalarining texnik holatini baholash va diagnostika qilish *qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.*

Ishlab chiqarish faoliyatida:

- qurilish ob'ektlarida usta, ish yurituvchi bo'lib ishlash, qurilish ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarini bajarish;
- yo'l ishlarini bajarish texnologik jarayonlarining hisobiy–texnologik xaritalarini tuzish va qo'llash;
- ta'mirlash ishlarida qo'llaniladigan materiallar va konstruksiyalarning sifatini nazorat qilish;

- yo‘l ishlarini bajarishda texnologik intizomga rioya qilinishini nazorat qilish;
- yo‘l ishlarini bajarish texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llash;
- temir yo‘l izidan joriy foydalanish va kapital ta‘mirlash;
- mavjud temir yo‘llarni qayta qurish ishlarini tashkillashtirish;
- temir yo‘l izini joriy va kapital ta‘mirlashda mashina va mexanizmlardan samarali foydalanish;

- amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;

- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish *qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.*

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish mexanizmini ishlab chiqarish va monitoringini olib borish;

- temir yo‘l va yo‘l xo‘jaligiga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

- temir yo‘l quruvchilari jamoasi ishini tashkil qilish;

- temir yo‘l xo‘jaligini takomillashtirish fikrlari har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

- temir yo‘l ta‘mirlash ishlarini bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

- yo‘l xo‘jaligi inshootlari va qurilmalarini joriy saqlash va ta‘mirlash ishlarida atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish *qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.*

2. 60730800 – Yo‘l muhandisligi (temir yo‘llar ekspluatatsiyasi) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- korporativ axborot tizimlarini, statistik tahlil va hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;
- sohada boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;
- sohada raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;
- temir yo'l va yo'l xo'jaligi bo'yicha loyiha va ishlanmalardan ishlab chikarishda samarali foydalanish, loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, bo'lishi mumkin bo'lgan havf-xatarlarni tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish.
- temir yul izi texnik holatini baholash va diagnostika qilish, temir yo'l xo'jaligini yuritish, mashina va mexanizmlar majmuasidan samarali foydalanish usullarini tanlash va qo'llash qobiliyatiga ega bo'lish.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

temir yo'l va yo'l xo'jaligi, ekspluatatsiyadagi temir yo'llar, yo'l xo'jaligi texnologik jarayonlari, yo'l xo'jaligini yuritish tizimi, yo'l mashina stansiyalari, yuqori tezlikli poyezdlar harakati, joriy va kapital ta'mirlash, temir yul izi texnik holati, malaka talabi, kredit-modul tizimi, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, o'quv rejasi, fan dasturi, bakalavriat, o'quv jarayoni, loyihaviy-konstruktorlik faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishi, hizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish-texnologik, tashkiliy-boshqaruv, malakaviy amaliyot, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, oliy o'quv muassasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILDI:



Toshkent davlat transport universiteti

Rektor

O. Abduraxmanov

202__ yil «__»__

M.O'.

KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Transport vazirligi**

Vazir o'rinbosari

A. Muminov

202__ yil «__»__

M.O'.



O'zbekiston Respublikasi

**Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tatbiq etish markazi**

Direktor

Sh. Yakubov

202__ yil «__»__

M.O'.



**"O'zbekiston temir yo'llari" AJ
Personalni boshqarish va kadrlarni tayyorlash
boshqarmasi**

Boshqarma boshlig'i

V. Tuxtaev

202__ yil «__»__

M.O'.



Toshkent arxitektura-qurilish instituti

Rektor

Ercan Kahya

202__ yil «__»__

M.O'.

